

01-24/02-23-son
2022-yil 5-yanvar

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Monopoliyaga qarshi kurashish

qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari

B. Karimov

2022 yil “ 5 ” yanvar



O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil I- yarim yillik uchun

ISH-REJA DASTURI

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	<p>Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o‘rganish.</p> <p>Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz faoliyatni (harakatni) amalga oshirganlik yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq jarimalar qo‘llanilishi yuzasidan Qo‘mitaning barcha hududiy organlari mas’ul xodimlari ishtirokida amaliy seminar o‘tkazish.</p>	Yanvar	U. Fayazov
2.	<p>Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o‘rganish.</p>	Yanvar	V. Mustafina Hududiy boshqarmalar
3.	<p>Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o‘rganish.</p>	Yanvar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi
4.	<p>Sog‘liqni saqlash sohasida davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tashxis va davolash bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq tibbiy xizmatlar uchun bazaviy narxlarini o‘rnatilgan tartibda o‘rganib chiqish.</p>	Yanvar	U. Davlatov

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
5.	<p>Viloyatdagi issiqlik energiyasi sohasida tabiiy monopoliya subyekti hisoblangan "Buxoro energomarkaz" AJ va "Issiqlik manbai" DUKning ulgurji iste'molchilarga issiq suv va issiqlik energiyasi yetkazib berish bo'yicha tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni qo'llanilganligini o'rganish va Qo'mitaga hamda viloyat hokimligiga ma'lumot kiritish.</p>	Yanvar	Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi
6.	<p>O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2019-yil 19-martdagi 01-11/01-05-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019-yil 19-aprelda 3155-son bilan ro'yxatga olingan "Qonun hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash Metodikasi" ijrosini ta'minlash maqsadida Jizzax shahar, Sh.Rashidov tuman hokimliklari tomonidan qabul qilingan me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish va "ex-post" usulida raqobatga ta'sirini o'rganish.</p>	Yanvar	Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi
7.	<p>O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi qo'mita tizimi xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid harakatlar va axloq qoidalarini buzilganligi bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazishning namunaviy Qoidalarini ishlab chiqish.</p>	Yanvar-Fevral	D. Nasirova
8.	<p>Birja savdolari sohasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish xavfini baholash metodologiyasi loyihasini ishlab chiqish.</p>	Yanvar-Fevral	N. Artikov
9.	<p>Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o'rganish.</p>	Fevral	U. Fayazov
10.	<p>9-fevral – A.Navoiy va 14-fevral – Z.M.Bobur tavalludi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.</p>	Fevral	G. Qodirova
11.	<p>Tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeni suiiste'mol</p>	Fevral	Andijon viloyati hududiy boshqarmasi

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	qilishi, "kartel" kelishuvlari va til birlashtirish bo'yicha, qishloq xo'jaligi uchun yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar ishlab chiqarishi va sotilishini taxli bo'yicha ma'lumotlarni Qo'mitaga taqdim etish.		
12.	Tabiiy monopoliya subyektlari bo'lgan "Issiqlik manbai" DUK, "Navoiy suv ta'minot" MCHJlarning suv va issiqlik energiyasi ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlariga narxlar va tariflar shakllantirilishini tahlil qilish va belgilangan narxlarga rioya qilinishini o'rganish.	Fevral	Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi
13.	Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalining saytlarida xarid yakunlari bo'yicha byudjet va korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilayotgan tender (tanlov) yakunlari bo'yicha o'rganish o'tkazish hamda o'tkaziladigan savdolarida raqobat muhitini ta'minlash maqsadida monitoring olib borish va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha chora ko'rish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Qo'mitaga ma'lumot taqdim etish.	Fevral	Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi
14.	Qo'mita markaziy apparatining byudjet mablag'lari xarajatlar smetasi ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Qo'mitaning rahbariyatiga kiritish.	Fevral- Mart	L. Allayev
15.	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida xodimlar ishtirokini tashkil etish.	Fevral- Mart	B. Maxmudov
16.	Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o'rganish.	Mart	U. Fayazov
17.	"Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari" AJga 2018-yil 1-yanvardan 2021-yil yakuniga qadar iste'molchilarga yetkazib berilgan elektr energiyasi hajmlari va qo'llanilgan tariflarning qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan o'rganish.	Mart	Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
18.	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqish.</p>	Mart	S. Atamurotov
19.	<p>Tovar va moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestri"ga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot (xizmat) yetkazib berish (ko'rsatish) bo'yicha 2022-yil davomida imzolangan shartnomalarni O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi "Ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish" va Qonunning 11-moddasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlarini taqiqlash" talablariga mosligi yuzasidan o'rganishlar o'tkazish va Qo'mitaga ma'lumot taqdim etish.</p>	Mart	Namangan viloyati hududiy boshqarmasi
20.	<p>Byudjet va korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilayotgan tanlov va tender yakunlari bo'yicha buyurtmachining qarindoshlari yoki yaqin qarindoshlari g'olib bo'lib, mazkur holat "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining talablarini buzilishiga olib kelmoqda shunga ko'ra, monitoring natijasida aniqlangan holatlar bo'yicha raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan chora ko'rish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Qo'mitaga ma'lumot taqdim qilish.</p>	Mart	Toshkent shahar hududiy boshqarmasi
21.	<p>Tijorat bank kassalari orqali kommunal xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirganda, iste'molchilardan bank komission haqi olinishi holatlarining asosligi yuzasidan o'rganish va tahlillar o'tkazish.</p>	Mart	E. Xaitmetov
22.	<p>Hududiy kommunal xizmatlar, shu jumladan, ichimlik suvi, suv-oqova xizmati va isitish tizimi tariflarining asosli shakllantirilishi, amalga kiritilishi va qo'llanishi tartiblariga rioya etilishi yuzasidan o'rganish o'tkazish.</p>	Aprel	D. Botirov Hududiy boshqarmalar
23.	<p>Tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitining holatini o'rganish va xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining ustun mavqeni</p>	Aprel	Andijon viloyati hududiy boshqarmasi

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	aniqlash, shaxslar guruhi ishtirokchilarining tarkibini belgilash maqsadida shahar va tuman hokimliklarining komissiyalari tomonidan o'tkazilayotgan tender (tanlov)larni o'rganish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan Qo'mitaga ma'lumot taqdim etish.		
24.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan 2020-2021 yillar mobaynida qabul qilingan qarorlar, farmoyishlar, yig'ilish bayonlari hamda korxonalar va tashkilotlar bilan yozishmalarni raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan Olot tuman hokimligida inventarizatsiya o'tkazish.	Aprel	Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi
25.	Jizzax viloyat "Suv ta'minoti" MCHJ tomonidan ichimlik va oqava suv xizmatlariga shakllantirilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqava suv tizimini yana-da takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli farmoni asosida tasdiqlangan tarif (narx)larni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktyabrdagi 239-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning 36-bandi 1-katta xatboshining 4 va 5-kichik xatboshi talablari yuzasidan o'rganish.	Aprel	Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi
26.	Jahon banki bilan hamkorlikda "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasi doirasida xalqaro ekspertni jalb qilgan holda "Bozorlarda ustunlik mavqeining mavjudligini va suiste'mol qilinishini aniqlash" bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.	Aprel	O. Usmonov
27.	Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari reklamasining reklama to'g'risidagi qonunchilikka mosligini o'rganish.	Aprel	E. Xaitmetov
28.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 402-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida O'zbekiston	Aprel- May	D. Nasirova Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining faoliyatini, samaradorligi, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish.		
29.	Yangi qurilgan uy-joylarni va yangi ulanayotgan maishiy iste'molchilarni tabiiy gaz tarmog'iga ulash tartib va shartlari, undirilayotgan to'lovlarning asosligini o'rganish.	Aprel- May	Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi
30.	Grafik asosida davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o'rganish.	May	U. Fayazov
31.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son farmoni ijrosi bo'yicha Hududiy boshqarmalar ishtirokida o'quv seminar tashkil qilish.	May	U. Davlatov Hududiy boshqarmalar
32.	"Artopediya-Reabilitatsiya" MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlarini o'rganish.	May	Toshkent shahar hududiy boshqarmasi
33.	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va uning Hududiy boshqarmalari xodimlarining xaridlar va o'rganishlarda ishtirok etish jarayonida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash tartibi to'g'risida seminar trening o'tkazish.	May	M. Kamilov Hududiy boshqarmalar
34.	Jahon banki bilan hamkorlikda "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasi doirasida xalqaro ekspertni jalb qilgan holda "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida raqobatni baholash" metodikasini ishlab chiqish.	May	O. Usmonov
35.	"Chirchiq qishloq xo'jalik texnikasi" AJ tomonidan tabiiy monopoliya sharoitida ko'rsatilayotgan xizmatlar xajmini tahlil qilish va tabiiy monopoliyalar davlat reestridan chiqarish choralarini ko'rish.	May	Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi
36.	Qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash bozorida Tovar yoki moliya bozorlarini haqiqiy holatini tahlil qilish, mazkur bozorlarni	May-Iyun	Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	rivojlantirish yo'lidagi g'ov-to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni Qo'mitaga taqdim etish.		
37.	O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni ijrosi yuzasidan viloyatda davlat xaridlar bo'yicha ishtirokchilarning raqobatga qarshi xarakatlarini oldini olish bo'yicha o'rganishlar o'tkazish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan Qo'mitaga ma'lumot taqdim etish.	May-Iyun	Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi
38.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof - muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining Farg'ona viloyat boshqarmalari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar uchun qo'llaniladigan tariflarni asosligini o'rganish.	May-Iyun	Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi
39.	Qo'mitaga biriktirilgan Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 10 ta (<i>Farxod, Vatanparvar, Vatan, Nurobod, Hamdo'st, Shirin, A.Sog'univ, Diyodor, Yangiyo'l, Diyorobod</i>) mahallalarda "namunaviy mahalla" qiyofasini yaratish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni, ularni rivojlantirish hamda u yerda yangi kichik biznes va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish orqali "Temir daftar", "Yoshlar daftar" va "Ayollar daftar"ga kiritilgan ishsiz fuqarolarning bandiligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Iyun	K. Mamatov
40.	Rossiya Federatsiyasining Monopoliyaga qarshi kurashish federal xizmati bilan raqobat siyosati sohasida o'zaro anglashuv hamda hamkorlik to'g'risida Memorandumni imzolash.	Iyun	O. Usmonov
41.	"Yangiyo'l yog'-moy" xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aktsiyadorlik jamiyati tomonidan tabiiy monopoliya sharoitida ko'rsatilayotgan xizmatlar xajmini tahlil qilish.	Iyun	Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi
42.	Elektron tijorat sohasida raqobat muhitini takomillashtirish maqsadida Elektron tijorat jarayonida monopoliyaga qarshi savdo qoidalarini tasdiqlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Iyun	S. Atamurotov

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
43.	Katta hajmlarda eksport qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishda raqobatga qarshi harakatlar yuzasidan o'rganish o'tkazish.	Iyun	Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi
44.	Raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarini joriy qilish, bunda tadbirkorlar va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratgan holda taklif ishlab chiqish.	Iyun	X. Ortiqov
45.	Xalqaro AQSh agentligi USAID bilan hamkorlikda, amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish va birja savdosi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, tovar derivativlarini joriy etish va rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha yuqori malakali xalqaro ekspertni jalb etish.	Iyun	O. Usmonov
46.	Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalining http://xarid.uz/ (http://xarid.uz/dxarid/deals va http://xarid.uz/exarid/deals) saytida xarid yakunlari bo'yicha byudjet va korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilayotgan tanlov va tender yakunlari bo'yicha o'rganish o'tkazish hamda qurilish sohasida o'tkaziladigan tanlov (tender) savdolarida raqobat muhitini ta'minlash maqsadida monitoring olib borish.	Doimiy ravishda	M. Kamilov Hududiy boshqarmalar
47.	Qo'mita faoliyatiga oid dolzarb mavzuda tahliliy materiallar tayyorlash, maqolalar chiqarish, infografikalar tayyorlash.	Doimiy ravishda	S. Tolyaganova